UDK: 611.428:577.2:615.32:613.84

BCL-6 TRANSKRIPSION MARKERI EKSPRESSIYASI ASOSIDA B-HUJAYRALI IMMUN JAVOBNING BIOKORREKSION TIKLANISHINI BAHOLASH

Fayzieva Nozima Gulom qizi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent N.R. Temirova
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Dolzarbligi.

BCL-6 germinativ markaz B-limfotsitlarida ekspressiyalanuvchi yadroviy transkripsion repressor bo‘lib, B-hujayralar proliferatsiyasi, somatik gipermutatsiya, affinitet seleksiyasi va immunologik xotira hujayralarining shakllanishida markaziy o‘rin tutadi. Shu bois BCL-6 germinativ markazga xos funksional holatning o‘ ziga xos markeri hisoblanadi. Ekzogen zararlovchi omillar ta’sirida BCL-6-immunoreaktiv B-hujayrali komponentning o‘zgarishi va uni tuzatish imkoniyati kam yoritilgan. Ushbu tezisda BCL-6 ekspressiyasi va biokorreksiyaning tiklovchi ta’siri baholanadi.

Tadqiqot maqsadi.

Uch yosh guruhida PM2.5 va tamaki tutunining birgalikdagi ta’sirida germinativ markaz BCL-6-immunoreaktiv B-hujayrali komponentining o‘zgarishini aniqlash va dorivor gulxayri bilan biokorreksiya natijasida uning tiklanish darajasini baholash.

Material va usullar.

Immunogistokimyoviy reaksiya BCL-6 markeriga qarshi antitanalar, HRP-polimer va DAB-xromogen bilan bajarildi. Ekspressiya germinativ markazlarda ×400 kattalashtirishda QuPath v0.6.0 dasturida raqamli baholandi; pozitiv hujayralar foizi hisoblanib, IRS shkalasi qo‘llanildi. Tiklanish darajasi (biokorreksiya − ta’sir)/(nazorat − ta’sir)×100% formulasi bo‘yicha hisoblandi.

Natijalar.

Me’yoriy guruhda BCL-6 pozitiv hujayralar ulushi 24% (IRS=6), 18% (IRS=4) va 12% (IRS=4) bo‘lib, yoshga bog‘liq fiziologik pasayishni namoyon qildi. Birgalikdagi ta’sirda bu ko‘rsatkich 11% (IRS=2), 8% (IRS=1) va 5% (IRS=1) gacha kamaydi; nazoratga nisbatan pasayish 54,2%, 55,6% va 58,3% ni tashkil etdi. Muhim jihati, 12 va 18 oylik guruhlarda pozitiv hujayralar ulushi 10% dan pastga tushib, IRS foiz balli 2 dan 1 ga o‘tdi. Saqlangan BCL-6 pozitiv hujayralar asosan germinativ markazlar doirasida joylashib, markerning topografik spetsifikligi yo‘qolmaganini, biroq B-hujayrali populyatsiya miqdoran qisqarganini ko‘rsatdi. Biokorreksiyadan so‘ng BCL-6 ekspressiyasi 20%, 15% va 10% gacha ortdi; tiklanish darajasi mos

ravishda 69,2%, 70,0% va 71,4% ni tashkil etdi. 6 va 12 oylik hayvonlarda BCL-6 IRS ko‘rsatkichi nazorat darajasiga (mos ravishda 4 ball) qaytdi, 18 oylikda esa (IRS 1→2) to‘liq me’yorlashmadi. Bu natijalar biokorreksiyaning germinativ markaz B-hujayrali funksional komponentini sezilarli, ammo yosh bilan chegaralangan darajada tiklashini ko‘rsatdi.

Xulosa.

PM2.5 va tamaki tutunining birgalikdagi ta’siri germinativ markaz BCL-6-immunoreaktiv B-hujayrali komponentini barcha yoshlarda progressiv qisqartiradi. Dorivor gulxayri bilan biokorreksiya bu komponentni taxminan 69–71% darajasida tiklaydi; ta’sir mutlaq regeneratsiya emas, balki ifodalangan muhofaza qiluvchi va funksional tiklovchi immunomodulyator xarakterga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Basso K., Dalla-Favera R. Roles of BCL6 in normal and transformed germinal center B cells. Immunol Rev. 2012;247(1):172–183.

2. Cheng Y., et al. Correlation between C-MYC, BCL-2 and BCL-6 protein expression as biomarkers in DLBCL. Front Oncol. 2018;8:658.

3. Bhalla M., et al. Cigarette smoke exposure attenuates the induction of antigen-specific IgA in the murine upper respiratory tract. Mucosal Immunol. 2021;14(6):1359–1370.

4. Bonaterra G.A., et al. Anti-inflammatory and anti-oxidative effects of root extract of Althaea officinalis L. on macrophages in vitro. Front Pharmacol. 2020;11:290.